

Budjet tashkilotlariga neft mahsulotlarini yetkazib berish haqidagi

TBT/71- sonli SHARTNOMA

Termiz shaxri

03.02.2022.

Keyingi o'rinda «Yetkazib beruvchi» deb ataluvchi «Termiz neft bazasi» M.Ch.J. nomidan nizom asosida faoliyati yurituvchi direktori G'Norqobilov bir tomondan va «Iste'molchi» deb ataluvchi VILOYAT ENDOKRINOLOGIYA DISPANSERI nomidan nizom asosida faoliyat yurituvchi K.Meliqulov ikkinchi tomondan, ushbu shartnomani quyidagilar haqida tuzdilar.

1. SHARTNOMA MAZMUNI

- 1.1. «Etkazib beruvchi», «Iste'molchi»ning buyurtmasi asosida tegishli rusum va miqdordagi neft mahsulotlarini yetkazib berish, «Iste'molchi» esa yetkazib berilgan neft mahsulotlarini qabul qilib olish va haqini to'lash majburiyatlarini ushbu shartnomada kelishilgan shartlarda bajarishni o'z zimmlariga oladilar.
- 1.2. Tomonlar o'zaro kelishilgan holda ma'lum davr (oylik, choraklik yoki yillik davr) uchun yetkazib berilishi ko'zda tutilgan neft mahsulotlari turlari, assortimentlari va miqdorlarini ushbu shartnomaning ilovasidagi spetsifikatsiya orqali belgilab oladilar.

Spetsifikatsiya ma'lumotlaridan tomonlar o'z shartnomaviy majburiyatlarini bajarishda, jumladan «Iste'molchi» buyurtmalarini shakllantirishda, «Etkazib beruvchi» esa neft mahsulotlarining zarur zahirasini oldindan yaratishni rejalashtirishda foydalaniladi.

2. NEFT MAHSULOTLARI NARXLARI VA HISOB – KITOB TARTIBI

- 2.1. Shartnomaning taxminiy umumiy summasi QQS bilan 600295 so'mni tashkil etadi.
- 2.2. Yetkazib beriladigan neft mahsulotlarining narxlarini «Yetkazib beruvchi» tomonidan Budjet tashkilotlari, paxta xomashvosi va g'alla ishlab chiqaruvchi fermer xo'jaliklari va paxtato'qimachilik klasterlari, «O'zbekiston temir yo'llari» AJ, «Toshshaxarttransxizmat» AJ, maishiy chiqindilarni to'plash va olib chiqish bo'yicha davlat korxonalariga dizek yoqilg'isi (shu jumladan EKO markali dizek yoqilg'isi) o'tgan haftadagi birja savdolari natijalariga ko'ra shakllangan o'rtacha birja narxlarida shakllanadi. Boshqa neft mahsulotlari esa neft baza tomonidan sotib olish va transportirovka xarajatlari hamda neft bazaning ustamasiidan shakllangan narxlarda shakllanadi.
- 2.3. «Etkazib beruvchi», «Iste'molchi»ning buyurtmasi olingan zahoti yetkazib berilishi so'ralgan neft mahsulotlarining o'sha kundagi joriy narxlarini unga ma'lum qiladi. «Iste'molchi» mazkur narxlar asosida buyurtmadagi neft mahsulotlari partiyasining tegishli hajmi uchun 100 foiz oldindan to'lovlarini 5 kun ichida amalga oshiradi. Aks holda «Etkazib beruvchi» neft mahsulotlari uchun yangi joriy narxlarini qo'llashi mumkin.
- 2.4. Yetkazib beriladigan neft mahsulotlari uchun to'lovlar «Etkazib beruvchi»ning bankdagi hisob raqamiga pul o'tkazish yo'li bilan amalga oshiriladi.

2. Taraflar shartnoma bo'yicha o'z majburiyatlarini bajarayotganda O'zbekiston Respublikasining korruptsiyaga qarshi urushish to'g'risidagi qonun hujjatlarining talablariga zid keladigan har qanday harakatlarni amalga oshirmaydilar, shu jumladan, pora berishni taklif qilmaydi, va da bermaydi, tovlamachilik qilmaydi, pora sifatida pul to'lamaydi, bevosita yoki ilvosita pora olishga rozilik bermaydi yoki pora, ya'ni xodim o'z xizmat majburiyatlaridan foydalangan holda pora bergan xaxsning manfaatlarini ko'zlab muayyan harakatlarni sodir yetishi yoki sodir yetmasligi shartligi yoki mumkinligi uchun ioddiiy qimmatliklarni yoki mulkiy naf olmaydi. Taraflar ushbu harakatlarga yo'l qo'ymaslik bo'yicha choralar ko'rinishiga afoflar beradi.

3. Ushbu shartnomaning bajarilishida yuzaga keladigan har qanday nizo va kelishmovchiliklar tomonlar o'rtasida o'zaro muzokara yo'li bilan hal etiladi. Kelishuvga erishilmagan taqdirda esa nizolar belgilangan artibda iktisodiy sudlar orqali hal etiladi.

4. Shartnomaga kiritiladigan har qanday o'zgartirish va qo'shimchalar yozma ravishda bo'lib, har ikkala omon imzolagandan keyingina haqiqiy hisoblanadi.

5. Ushbu shartnoma 2 nusxada tuzildi va teng xukukiy kuchga ega.

6. Shartnoma tomonlar o'rtasida imzolangan kundan kuchga kiradi va 2022 yil 31 dekabr gacha amal iladi.

9. TOMONLARNING Yuridik Manzillari

«TA'MINOTCHI» «Iste'molchi»

Termiz shaxri

«Termiz neft bazasi» M.Ch.J.

Toshkent sh. «UZSANOATKURILISHBANK» ATB

MFO 00432 STIR 200473847

X/R 22604000400556749701

Direktor: [Signature]

Bosh xisobchi: [Signature]

Ichki solish bo'limi: [Signature]

Xuquqshunos: [Signature]

M. O'.

Markaziy bank

Bank H/R 23402000300100001010

Bank MFO:00014

STIR 200478017

Korxona raxbari: [Signature]

M. O'.

2022 yil " " dagi

TBT/71 - sonli shartnomaga ilova

SPYESIFIKASIYA

Neft mahsulotining nomi	Dav. STTSh	O'lchov birligi	Narxi	Yillik miqdori	Etkazib berishi summasi	QQS	Summasi
AI-80		tn.	12000-590	500	12000-590		600295
AI-91		tn.					
AI-92		tn.					
AI-95		tn.					
DYO		tn.					
YO EKO		tn.					

Termiz neft mahsulotlari narxlarini birja savdolari natijalariga ko'ra o'zgaradi.

«Iste'molchi»

M. O'.

3. YETKAZIB BERISH TARTIBI VA MUDDATLARI

3.1. Neft mahsulotlari «Etказib beruvchi»ning omboridan yoki unga qarashli filiallardan «Iste'molchi»ning buyurtmasi va unda yetkazilishi so'ralgan neft mahsulotlari uchun to'lovlar kelishilgan muddatda oldindan 100% amalga oshirganligini tasdiqlovchi to'lov hujjati nusxasi taqdim etilganda yetkazib beriladi.

3.2. Neft mahsulotlari «Iste'molchi»ga «Etказib beruvchi»ning maxsus avtotransportida belgilangan tartibda yetkazib beriladi. Neft mahsulotlarini shuningdek «Iste'molchi»tomonidan barcha yongin va texnika xavfsizlik talablariga rioya qilish bo'yicha mas'uliyatni o'z zimmasiga olgan holda o'ziga tegishli yoki ijaraga olingan maxsus transport vositasida olib ketilishi mumkin va bunday holatda tashish harajatlari qayta ko'rib chiqilmaydi.

3.3. Neft mahsulotlari omboriga neft mahsulotini tashuvchi avtomobil sistemalari 1510-84 Davlat standart talabiga javob berishi shart. Aks holda avtotransport vositalari ombor hududiga kiritilmaydi va ularga neft mahsulotlarining quyilishiga ruxsat etilmaydi. Bunday avtotransport vositalarining bo'sh ketishi uchun «Etказib beruvchi» javobgar bo'lmaydi.

3.4. Neft mahsulotlari qo'yilgan avtotransportlar («Iste'molchi»ning avtotransportida olib ketish xolatlaridan bundan mustasno) «Iste'molchi»ning talabiga binoan «Etказib beruvchi»ning yoki uning bo'linmalari tomonidan amaldagi me'yoriy texnik hujjatlarga (2417-85 davlat standartiga) mos tarzda tamg'alanadi.

3.5. Neft mahsulotlari ushbu shartnomaning 3.1. bandida keltirilgan hujjatlar taqdim etilgan kundan boshlab 2 kun ichida yetkazib beriladi. Neftni qayta ishlash zavodlaridan yetkazib berilmasligi yoki temir yo'l tashkilotlarining aybi bilan yuzaga kelgan neft mahsulotlari ta'minotidagi uzilish holatlarida «Etказib beruvchi» tomonidan «Iste'molchi»ni bu haqda habardor qilingan holda tomonlar yetkazib berishning boshqa muddatini o'zaro kelishib olishlari mumkin.

4. NEFT MAHSULOTLARINI QABUL QILISH TARTIBI

4.1. Neft mahsulotlari miqdor buyicha qabul qilish «Ishlab chiqarish texnika va halq iste'moli mollarini miqdor jixatdan qabul qilib olish tartibi to'g'risida»gi P-6-sonli va sifati bo'yicha esa «Ishlab chiqarish texnika va halq iste'moli mollarini sifat jixatdan qabul qilib olish tartibi to'g'risida»gi P-7-sonli yuriqnomalar xamda boshqa me'yoriy hujjatlar talablari asosida amalga oshiriladi.

4.2. «Iste'molchi»ning vakili neft mahsulotlarini olayotgan vaqtda mahsulotning sifati va miqdorini joyida tekshirib oladi.

4.3. Neft mahsulotlarini yetkazib berganlik to'g'risidagi tegishli hujjatlar «Etказib beruvchi»ning omborida yoki unga qarashli filiallarda, ayrim hollarda «Iste'molchi»ning hududida rasmiylashtiriladi va ularni «Iste'molchi» tomonidan bunga vakolat berilgan ishonchnoma asosida vakili imzolaydi va neft mahsulotlarini qabul qilib oladi. Egallik xuquqi, tasodifiy nobud bo'lishi, neft mahsulotlariga ziyon yetish xavfi «Etказib beruvchi»ombori yoki filiali xududidan chiqqan vaqtdan boshlab «Iste'molchi»ga o'tadi.

5. NEFT MAHSULOTLARINING SIFATI

5.1. «Etказib beruvchi» «Iste'molchi»ga sifati Davlat standartlariga va texnik shartlarga javob beradigan neft mahsulotlarini yetkazib berishni kafolatlaydi. Yetkazib beriladigan neft mahsulotlarining sifati 1510 va 2517-son Davlat standartlari va texnik shartlarga mos bo'lishi hamda bu neft mahsulotlarini avtotransport vositalariga yuklash va tashib yetkazilishi kuzatilishiga oid rasmiylashtirilgan xujjatlarda qayd etilishi lozim.

5.2. Neft mahsulotlarini olishda «Iste'molchi» ularning sifati, shuningdek sifat pasportini talab qilish xuquqiga ega.

6. TOMONLARNING JAVOBGARLIGI

6.1. Tomonlar ushbu shartnoma bo'yicha o'z majburiyatlarini bajarmaganliklari yoki lozim darajada bajarmaganliklari uchun O'zbekiston Respublikasi fuqarolik Kodeksiga va «Xo'jalik yurtuvchi sub'ektlar faoliyatining shartnomaviy-xukukiy bazasi to'g'risida»gi qonuniga binoan javobgar bo'ladilar.

6.2. «Etказib beruvchi» neft mahsulotlarini o'z vaqtida yetkazib berganlik uchun har bir kechiktirilgan kun uchun vaqtida yetkazilmagan neft mahsulotlari summasining 0,1 foizi, lekin 10 foizidan ortiq bo'lmagan miqdorda penya to'laydi.

6.3. «Yetkazib beruvchi» neft mahsulotlari sifati o'z hisobidan tiklab berish bilan bir qatorda «Iste'molchi»ga yetkazib berilgan sifati lozim darajada bo'lmagan neft mahsuloti qiymatining 5 foizi miqdorida jarima to'laydi.

6.4. «Iste'molchi» belgilangan muddatda olinmagan va yetkazib berilgan neft mahsulotlarini olishdan sababsiz bosh tortganligi uchun «Etказib beruvchi»ga olinmagan mahsulot umumiy qiymatining 5 foizi miqdorida jarima to'laydi va ta'minotchi olinmagan mahsulot uchun mahsulotning to'liq qiymatini undirish huquqiga ega.

6.5. «Iste'molchi» o'zining hududiga olib kelingan neft mahsulotlarining qabul qilishda amaldagi yong'in va texnik xavfsizligi talab va me'yorlari to'liq amal qilinishiga to'liq javobgardir.

6.6. «Iste'molchi» yetkazib berilgan neft mahsulotlarini saqlashning texnikaviy shart-sharoitlari va xavfsizligi uchun amaldagi qonunlarda nazarda tutilgan tartibda javob beradi.

7. FORS-MAJOR HOLATLAR

7.1. Tomonlardan birortasi ushbu shartnoma bo'yicha o'z majburiyatini bajarmagan yoki lozim darajada bajarmagan va bunga fors-major holatlar, ya'ni yengib bo'lmaydigan kuch (favqulotda va muayyan sharoitlarda oldini olib bo'lmaydigan vaziyatlar (zilzila, qurg'oqchilik, suv toshqini, yong'in, sel, do'l, jala va boshqa tabiiy ofatlar)) sabab bo'lganligini isbotlasa, javobgar bo'lmaydi.

8. KORRUPTSIYAGA QARSHI KURASHISH VA BOSHQA SHARTLAR

8.1. Taraflar shartnoma bo'yicha o'z majburiyatlarini bajarayotganda O'zbekiston Respublikasining korruptsiyaga qarshi kurashish to'g'risidagi qonun hujjatlarining talablariga zid keladigan har qanday harakatlarni amalga oshirmaydilar, shu jumladan, pora berishni taklif qilmaydi, va'da bermaydi, tovlamachilik qilmaydi, pora sifatida pul to'lmaydi, bevosita yoki bilvosita pora olishga rozilik bermaydi yoki pora, ya'ni xodimi o'z xizmat majburiyatlaridan foydalangan holda pora bergan shaxsning manfaatlarini ko'zlab muayyan harakatlarni sodir etishi yoki sodir etmasligi shartligi yoki mumkinligi uchun moddiy qiymatliklarni yoki mulkiy naf olmaydi. Taraflar ushbu harakatlarga yo'l qo'ymaslik bo'yicha choralar ko'rilishiga kafolat beradi.



Yuridik shaxs (tadbirkorlik subyektini) davlat ro'yxatidan o'tkazilganligi to'g'risida

GUVOHNOMA

Ushbu bilan Tadbirkorlik subyektlari yagona davlat reyestriga

"TERMIZ NEFT BAZASI" Mas'uliyati cheklangan jamiyat

(Yuridik shaxsning – tadbirkorlik subyektining tashkiliy-huquqiy shakli ko'rsatilgan holdagi to'liq nomi)

"TERMIZ NEFT BAZASI" MChJ

(Yuridik shaxsning qisqartirilgan nomi)

Tashkil etish (qayta tashkil etish, boshqa ro'yxatdan o'tkazish ma'lumotlarini o'zgartirish)

01.02.2007

057

ro'yxat raqamli yozuv kiritilganligi tasdiqlanadi.

(Sana, oy (so'z bilan), yil):

Soliq to'lovchining identifikatsiya raqami (STIR):

200473847

Tashkiliy-huquqiy
shakli:

Mas'uliyati cheklangan jamiyat

Joylashgan joyi:

Surxandaryo viloyati, Termiz shahri, S.Termiziy ko'chasi 5-uy,

Guvohnoma:

Surxandaryo viloyati, Termiz shahri, YAGONA DARCHA
MARKAZI

tomonidan
berilgan

(Ro'yxatdan o'tkazuvchi organning to'liq nomi):

